QASHQADARYO VILOYATI KOSON TUMANI HOKIMINING

QARORI

2025-yil 22-aprel | 119-4-60-Q/25 | Koson tuman hokimligi

Safarbarlikka belgilangan avtotransport, yo‘l qurilish ko‘tarma transport, traktor, tirkama, yarim tirkama texnikalari va mototsikllarini qo‘shimcha ehtiyot qismlar, avtomashinalarni sozlash ish qurollari, yoqilg‘i quyish anjomlari bilan ta’minlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996 yil 22 iyuldagi 259-45 sonli qarori, O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirining 019 buyrug‘ining talablari ijrosini ta’minlash, hamda tumanda safarbarlikka belgilangan avtotransport, yo‘l qurilish, ko‘tarma transport, traktor, tirkama, yarim tirkama texnikalari va mototsikillarni qo‘shimcha extiyot qismlar, avtomashinalar sozlash va ish qurollari yoqilg‘i quyish anjomlari bilan ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 126 – moddasiga O‘zbekiston Respublikasi “Maxalliy davlat xokimiyati to‘g‘risida”gi Konunining 6- moddasiga asosan ,

Q A R O R Q I L A M A N:

1.Safarbarlikka belgilangan avtotransport, yo‘l qurilish, ko‘tarma transport, traktor, tirkama, yarim tirkama texnikalari va mototsikllarini qo‘shimcha ehtiyot qismlar, avtomashinalarni sozlash ish qurollari, yoqilg‘i qo‘yish anjomlari bilan ta’minlansin.

2.Qurolli Kuchlar uchun safarbarlik davrida mulkchilik shaklidan qat’iy nazar tashkilot, korxona, xususiy firmalar boshliqlari har bir avtotransport, yo‘l qurilishi, ko‘tarmatransport, traktor, tirkama, yarim tirkama texnikalari va mototsikllarini qo‘shimcha ehtiyot qismlar, avtomashinalarni sozlash ish qurollari, yoqilg‘i quyish anjomlari bilan tayyorlansin va ehtiyot qismlar alohida qutilarda muhrlangan holda alohida omborxonalarda saqlansin .

3.Tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari H.Nazarov hamda tuman mudofaa ishlari

bo‘yicha bo‘limi boshlig‘i Z.Hasanov bilan birgalikda, harbiy safarbarlik davrida jalb qilinishi zarur bo‘lgan avtotransport, yo‘l qurilishi, ko‘tarmatransport, traktor, tirkama, yarim tirkama texnikalari va mototsikllarini qo‘shimcha ehtiyot qismlar, avtomashinalarni sozlash ish qurollari, yoqilg‘i quyish anjomlari bilan ta’minlash chora tadbirlarini ko‘rib chiqsin.

4.Ushbu qarorni bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari H.Nazarov zimmasiga yuklatilsin.

Koson tuman hokimi **A.Boykaraev**